

**MAKTAB MUHITINING O‘SMIR PSIXOLOGIYASIGA TA’SIRI.
MAKTABDAGI MUHIT, O‘QITUVCHILAR BILAN MUNOSABATLAR VA
AKADEMIK MUVAFFAQIYAT**

*Abduraimova Hulkaroy Muzaffar qizi
 Alfraganus Universiteti Pedagogika fakulteti
 Psixologiya yo‘nalashi 2-kurs
 E-mail: @hulkarabduraimova05@gmail.com*

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktab muhitidagi o‘smir shaxsining psixologik rivojlanishiga va ularning akademik muvaffaqiyatiga bo‘lgan ta’siri tahlil qilingan. O‘smirlik – bu inson hayotida shaxs sifatida shakllanish, o‘z-o‘zini anglash va ijtimoiy rollarni egallash davridir. Maktab bu jarayonning asosiy ijtimoiy maydonidir. Maqolada maktab muhitida o‘quvchining ruhiy holati, o‘ziga bo‘lgan ishonchi, motivatsiyasi hamda bilimga intilishi bilan bog‘liq bo‘lgan bevosita va o‘zaro omillari ko‘rib chiqiladi. Xususan, o‘qituvchilar bilan samimiy, ishonchli munosabat, tengdoshlar orasidagi ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va individual yondashuv o‘quvchilarning muvaffaqiyatlari o‘qishi va barqaror psixologik rivojlanishi uchun hal qiluvchi omillar ekani ilmiy va amaliy jihatdan asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: Maktab muhiti, o‘smir psixologiyasi, akademik muvaffaqiyat, o‘qituvchi-o‘quvchi munosabati, ijtimoiy-psixologik iqlim, motivatsiya, emotsiunal barqarorlik, individual yondashuv.

Аннотация: В данной статье анализируется влияние школьной среды на психологическое развитие личности подростка и его академический успех. Подростковый возраст - это период становления личности в жизни человека, самосознания и приобретения социальных ролей. Школа - это основное социальное поле этого процесса. В статье рассматриваются прямые и взаимосвязанные факторы, связанные с психологическим состоянием учащегося в школьной среде, его уверенностью в себе, мотивацией и стремлением к знаниям. В частности, научно и практически обосновано, что искренние, доверительные отношения с учителями, социальная поддержка среди сверстников и индивидуальный подход являются решающими факторами успешного обучения и устойчивого психологического развития учащихся.

Ключевые слова: Школьная среда, психология подростка, академический успех, отношения учитель-ученик, социально-психологический климат, мотивация, эмоциональная устойчивость, индивидуальный подход.

Abstract: This article analyzes the influence of the school environment on the psychological development of adolescent personalities and their academic success. Adolescence is the period of formation as a person in human life, self-awareness, and

the acquisition of social roles. The school is the main social arena of this process. The article examines the direct and mutual factors related to the student's mental state, self-confidence, motivation, and pursuit of knowledge in the school environment. In particular, it has been scientifically and practically substantiated that sincere, trusting relationships with teachers, social support among peers, and an individual approach are decisive factors for the successful learning and stable psychological development of students.

Keywords: School environment, adolescent psychology, academic success, teacher-student relationship, socio-psychological climate, motivation, emotional stability, individual approach.

Hozirgi rivojlanayotgan ta'lif tizimida o'quvchilar shaxsi, hissiy holati va ruhiy barqarorligi ularning samarali bilim egallashi bilan bevosita bog'liq ekanligi borgan sari ko'proq tan olinmoqda. Ayniqsa, o'smirlik bosqichida bu bog'liqlik yanada dolzarb ahamiyat kasb etadi. Mazkur davrda shaxsiy o'zgarishlar sodir bo'ladi, mustaqil fikrlash shakllanadi va ijtimoiy aloqalarga bo'lgan ehtiyoj kuchayadi. Maktab esa bu jarayonlarning asosiy maydoniga aylanib, o'quvchining o'zini qanday idrok etishi, o'zini ifoda etish imkoniyatlari hamda boshqalar bilan munosabatlari uning ruhiy holatiga va ta'limga bo'lgan munosabatiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi. Maktabdagi ijtimoiy-ruhiy muhit, o'qituvchilarning psixologik yetuklashuvi hamda o'quvdagi muvaffaqiyatida asosiy rol o'ynaydi. Shu sababli, maktab nafaqat bilim manbai, balki sog'lom ruhiy muhit yaratadigan muassasa sifatida e'tirof etilishi zarur.

Maktab muhitining psixologik ta'sir omillari

O'smir yoshidagilar maktab muhitini faqatgina bilim olish joyi sifatida emas, balki o'z shaxsiy salohiyatini namoyon eta oladigan, e'tirof topishi mumkin bo'lgan ijtimoiy makon sifatida ham qabul qiladilar. Bu bosqichda ular uchun muhim bo'lgan ehtiyojlar orasida o'z o'mini topish, ijtimoiy mavqega ega bo'lish va ichki qadriyatlarini anglash katta ahamiyat kasb etadi. Maktabdagi ruhiy muhit – o'qituvchi bilan o'quvchi o'rtaсидаги muloqot sifati, sinfdoshlari bilan o'zaro aloqalar, o'quvchining qadri qay adarajada tan olinishi – uning hissiy holatiga, o'ziga bo'lgan munosabatiga hamda ta'lif jarayoniga bo'lgan qiziqishiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatadi. Ijobiy ruhiy iqlim – mehr-oqibat, hurmat-ehtirom,adolat va doimiy qo'llab-quvvatlashga asoslangan muhit – o'quvchida o'zini xavfsiz va e'tiborga loyiq shaxs sifatida his qilish tuyg'usini shakllantiradi. Bu esa o'z navbatida uning ijtimoiy faolligini kuchaytiradi, tashabbus ko'rsatishga hamda o'z fikrini ochiq ifoda etishga undaydi. Aksincha, sovuq, beparvo yoki bosimga asoslangan muhit o'quvchining o'zini yet his qilishiga, o'qishga bo'lgan qiziqishining pasayishiga yoki tajovuzkorlik holatlarining kuchayishiga olib kelishi mumkin. Bundan tashqari, maktabning tashkiliy tuzilishi, rahbariyatning boshqaruv uslubi, baholash tizimi hamda intizomiy chora-

tadbirlari ham o'smir psixologiyasiga sezilarli darajada ta'sir karsatadi. Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv, rag'bat berish, hamkorlikka asoslangan baholash tizimlari o'quvchining o'ziga bo'lgan ishonchini mustahkamlaydi. Maktabning tashqi ko'rinishi, xavsizlik holati, saranjom-sarishta va ozoda muhit ham o'quvchilarning ruhiy holatini ijobjiy shakllantirishga xizmat qiladi. Shu sababli, maktab muhiti – bu oddiy jismoniy makon emas, balki o'smir yoshidagi o'quvchilarning ijtimoiy va ma'naviy kamolotiga ta'sir ko'rsatuvchi kuchli ruhiy omil sanaladi. Uni ongli tarzda yaxshilash esa ta'lim samaradorligi va o'quvchilarning barqaror psixologik rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Shu bois, quyidagi asosiy jihatlar ularning ruhiy holatiga ancha sezilarli ta'sir ko'rsatadi:

1. Tengdoshlar bilan munosabatlar

O'smirlik bosqichida tengdoshlar bilan muloqot yanada mustahkamlanadi. Maktabdagagi ijtimoiy guruhlar, ichki musobaqalashuv, do'stona munosabatlar hamda e'tibordan chetda qolish holatlari yoshlarning o'zini qadrlash hissi va o'ziga nisbatan munosabatini jiddiy darajada shakllantiradi. Agar o'quvchi jamoadan ajralib qolsa yoki bosim ostida qolsa, bu holat uning hissiy barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

2. O'qituvchi va o'quvchi munosabatlari

O'qituvchining o'quvchiga bo'lgan hurmat-ehtiromi, doimiy dalda berishi va shaxsga yo'naltirilgan yondashuvi o'smirda o'ziga bo'lgan ishonchni mustahkamlab, faollik va ichki rag'batning shakllanishiga yordam beradi. Aksincha, bosim o'tkazish, inkor qilish yoki faqat tanqid asosida olib borilgan muloqot o'quvchining ruhiyatida salbiy iz qoldirishi mumkin.

3. Akademik muvaffaqiyat va bosim

O'quvchining ta'lim jarayonidagi muvaffaqiyatlari va qiyinchiliklari uning o'ziga bo'lgan qarashlarini shakllantiradi. Past baholar, test va imtihonlardagi omadsizlik yoki kutilgan natijaga erisha olmaslik – stress, xavotr va o'ziga bo'lgan ishonchning susayishiga sabab bo'ladi. Aksincha, erishilgan yutuqlar ijobjiy hissiyotlarni uyg'otadi va belgilangan maqsadlarga intilish uchun rag'bat vazifasini bajaradi.

Maktab muhitini sog'lom saqlash bo'yicha tavsiyalar

1. Psixologik muhitni yaxshilash: Har bir o'quvchi o'z fikr va mulohazalarini erkin bayon eta oladigan, xavfsizlik hissi ustuvor bo'lgan va o'zaro hurmatga asoslangan makonni shakllantirish;

2. Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv: Har bir o'quvchining ruhiy va hissiy holatini hisobga olgan holda individual tarzda yondashish;

3. Tengdoshlar o'rtasida ijobjiy raqobat muhitini yaratish: Jamoaviy faoliyat, hamkorlik asosida ta'lim berish, hamdardlik tuyg'usi va ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlanishish;

- 4. O‘qituvchilarning psixologik bilim va ko‘nikmalarini kuchaytirish:** Maktab psixologlari ishtirokida amaliy mashg‘ulotlar, trening va seminarlar tashkil etish;
- 5. Qo‘llovchi tizimlarni yo‘lga qo‘yish:** Ijtimoiy xizmatlar, psixologik yordam ko‘rsatuvchilar, ota-onalar va o‘qituvchilar o‘rtasida faol hamkorlikni mustahkamlash.

Maktab muhiti va uning ta’siri

Maktabdagagi umumiy muhit – o‘qituvchilar, o‘quvchilar va boshqa xizmat ko‘rsatuvchi xodimlar o‘rtasidagi o‘zaro aloqa, joriy etilgan intizomiy tartib, xavfsizlik darajasi hamda erkin fikr almashish imkoniyati – o‘quvchilarning o‘zini qanday his qilishi bilan to‘g‘ridan – to‘g‘ri bog‘liqdir. Ushbu omillar o‘quvchining maktabga nisbatan munosabati, darslardagi faolligi va ruhiy holatiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. O‘smir yoshidagilar o‘zini qadrlangan, eshitilgan va tushunilgan deb hisoblagan ijtimoiy muhitda ijobiy his-tuyg‘ular bilan yashaydi, o‘z fikrini ochiq ifoda etishga va faol qatnashishga moyil bo‘ladi. Bunga zid tarzda, adolatsizlik, loqaydlik yoki haddan tashqari nazorat ustuvor bolgan maktab muhiti o‘quvchilari ruhiy bosim ostida qolishi mumkin. Bu esa o‘z navbatida tuskunlik, maktabdan uzoqlashish, hattoki ijtimoiy izolyatsiyaga olib kelish ehtimolini oshiradi. Shu bilan birga, maktabdagagi madaniy va axloqiy me’yorlar, rahbariyat va o‘qituvchilarning o‘zaro hurmatga asoslangan munosabati, o‘quvchilar orasidagi do‘stona muhit va ko‘makdoshlik kabi jihatlar sog‘lom ruhiy makonni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Maktab muhitining shakllanishi faqat o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi aloqalar bilan cheklanib qolmaydi. Bu muhit, shuningdek, ota-onalar bilan yo‘lga qo‘yilgan hamkorlik, sinf jamoasining jipsligi hamda maktabning jamiyat va madaniy holatdagi faolligi orqali yanada boyib boradi. Shunday ekan, maktab muhiti – bu o‘quvchilarning shaxsiy kamoloti va o‘zligini anglashiga zamin yaratadigan murakkab tizim bo‘lib, uning ijobiy yoki salbiy yo‘nalishi o‘quvchilarning nafaqat bilim darajasiga, balki ruhiy va ijtimoiy jihatdan yetuk shaxs sifatida shakllanishiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Ijobiy maktab muhiti:

1. O‘ziga bo‘lgan hurmat va ishonchni kuchaytiradi.
2. Ruhiy bosim va zo‘riqish darajasini pasaytiradi.
3. O‘qishga bo‘lgan ishtiyoqni oshiradi.
4. Maktabni ishonchli ijtimoiy tayanch makoniga aylantiradi.

Bunga qarshi ravishda, noqulay muhitda esa qo‘rquv, loqaydlik, havotir va sinfda o‘zini yakkalangan tarzda his qilishi kabi salbiy omillar o‘quvchining ruhiy holati va o‘qishdagi faoliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

O‘qituvchilar bilan munosabatlarning ahamiyati

O‘qituvchilar o‘quvchilarning hayotida muhim o‘rin egallovchi rahnamolar sifatida qaraladi. Ular nafaqat bilim beruvchi, balki ilhomlantiruvchi, yo‘l ko‘rsatuvchi va ko‘pincha ruhiy tayanch vazifasini bajaruvchi shaxslardir. O‘quvchilarning o‘quvdagi yutuqlari hamda shaxs sifatida shakllanish jarayonida o‘qituvchining tutgan

o‘rnii nihoyatda muhim sanaladi. Maktabdagisi o‘qituvchining o‘ziga xos ish yurirtish uslubi, tarbiyaviy yondashuvi va o‘quvchiga bo‘lgan mehr-e’tibori uning ruhiy holatiga, o‘zini qadrlashiga va ishonch darajasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Ijobiy, mehribon va rag‘batlantiruvchi munosabatlar o‘quvchida ichki qiziqish uyg‘otadi, uni faol ishtirok etishga va o‘zlashtirish jarayonidan zavqlanishga undaydi. O‘qituvchining har bir o‘quvchiga alohida e’tibor qaratishi, uning ehtiyojlarini anglashga harakat qilishi va doimiy ko‘mak ko‘rsatishi nafaqat o‘quv jarayonini samarali qiladi, balki o‘quvchining o‘ziga bo‘lgan hurmatini mustahkamlaydi. Shunigdek, o‘qituvchi o‘quvchining ijtimoiy va hissiy rivojlanishida ham katta ahamiyat kasb etadi. Ular o‘quvchilarning ruhiy ehtiyojlarini aniqlab berish, zarur hollarda ma’naviy yordam ko‘rsatish va stressli holatlarda dalda bo‘lish orqali o‘smir yoshdagi bolalarning jamiyatga moslashuvini yengillashtiradi. O‘qituvchining ijobiy psixologik munosabati va samimiylilik bilan yondashuvi o‘quvchining o‘qishdagi to‘siqlarni yengib o‘tishiga, o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshirishiga hamda ta’limdagi yutuqlarga erishishiga turtki bo‘ladi. Agar o‘qituvchi o‘z o‘quvchilari bilan ochiq, do‘stona va hurmatga asoslangan aloqani yo‘lga qo‘ya olsa, o‘quvchilar o‘zlarini hotirjam xavfsiz his etadi. Bu esa o‘quv jarayonining unumdorligini oshiradi. Demak, o‘qituvchi faqat ma’lumot beruvchi emas, balki o‘quvchining har tomonlama yetuk bo‘lib ulg‘ayishiga ko‘mak beruvchi shaxs hamdir. Quyidagi fazilatlar o‘qituvchining o‘quvchi muvaffaqiyatidagi muhim omillaridan hisoblanadi:

1. Samimiylilik va hurmat asosidagi munosabat o‘rnatish.
2. Har bir o‘quvchiga mos individual yondashuv.
3. Ilmga bo‘lgan rag‘batni kuchaytirish, ijobiy tanqid va doimiy dalda berish.
4. Muloqotda ochiqlik va ishonchli aloqalarni shakllantirish.

Akademik muvaffaqiyatga ijtimoiy va psixologik omillarning ta’siri

Ko‘plab ilmiy izlanishlar shuni ko‘rsatadiki, o‘quvdagi yutuqlarga faqat aqliy salohiyat emas, balki ijtimoiy va ruhiy omillar ham sezilarli darajada ta’sir o‘tkazadi. O‘quvchilarning ta’lim sohasidagi natijalarini ularning shaxsiy kamolotiga, o‘ziga nisbatan ishonch darajasiga hamda maktabdagisi ruhiy muhitning qandayligiga chambarchas bog‘liq bo‘ladi. O‘smirlarning o‘quvdagi muvaffaqiyatlariga ta’sir qiluvchi psixologik jihatlar sirasiga ilhom, o‘zini tanib olish, o‘z qadrini bilish, stress bilan kurashish ko‘nikmasi va boshqalarga nisbatan hissiy sezuvchanlik kiradi. Ijtimoiy omillar esa, ya’ni oila a’zolari, sinfdoshlari va ta’lim muassasasidagi pedagoglar bilan munosabatlar – o‘quvchilarning bilim olishga bo‘lgan munosabatini hamda natijalarini belgilaydi. O‘quvchilar o‘zlarining ta’lim sohasidagi muvaffaqiyatlarini faqat o‘z aqliy darajasi bilan emas, balki oilaviy va jamiyatdagi ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash hamda berilayotgan e’tibor asosida ham baholaydilar. Uy sharoitidagi ijobiy ruhiyat, ota-onalarning rag‘batlantiruvchi yondashuvi va ta’limga bo‘lgan ijobiy munosabati – o‘quvchining o‘ziga nisbatan ishonchini kuchaytiradi va

ularni muvaffaqiyat sari yetaklaydi. Shunigdek, o‘quvchilarning ijtimoiy muhitdagi pozitsiyasi – ya’ni tengqurlar bilan bo‘lgan munosabatlari va jamoada egallagan mavqeい – ularning o‘quvdagi natijalariga sezilarli darajada ta’sir o‘tkazadi. O‘smirlar guruhda e’tirof etilish va ijtimoiy obro‘ga ega bo‘lishni istaydilar. Maktabdagagi ijtimoiy atmosfera ijobiy bo‘lsa, bu o‘quvchilarga o‘zlarini erkin, ishonchli va xavfsiz his etishlariga sharoit yaratadi. Natijada, bu holat ularning bilim olishdagi faolligini kuchaytiradi va yutuqlarga erishishlariga turtki bo‘ladi. Agar o‘quvchilar stressli vaziyatlarni boshqarishni, noxush holatlarga konstruktiv yondashishni hamda muvaffaqiyatsizlikni sabr bilan qabul qilishni o‘zlashtirishsa, ular ta’lim jarayonida barqarorlikni saqlab, muvaffaqiyatli natijalarga erishadilar. Shu tariqa, psixologik va ijtimoiy rag‘bat, shaxsiy o‘sishni qo‘llab-quvvatlash hamda o‘z-o‘zini anglashni rivojlantirish – o‘quvdagi muvaffaqiyatning ajralmas bo‘lagi sanaladi. Ko‘plab ilmiy tadqiqotlar tasdiqlashicha, o‘quvdagi muvaffaqiyatning ajralmas bo‘lagi sanaladi. Ko‘plab ilmiy tadqiqotlar tasdiqlashicha, o‘quvda yuksak natijalarga erishish faqat aqliy salohiyat bilan emas, balki quyidagi omillar bilan ham uzviy bog‘liq:

1. Emotsional holat.
2. Ichki rag‘bat.
3. Oila hamda maktabdagagi ijtimoiy yordam va e’tibor.
4. Pedagoglarning o‘quvchilardan kutgan natijalariga bo‘lgan ishonchi muhim rol o‘ynaydi.

Qulay psixologik muhitda o‘quvchi o‘z salohiyatini namoyon etishga harakat qiladi, xatolardan cho‘chimaydi, mustaqil fikrlashga intiladi va o‘zining aqliy imkoniyatlarini sinab ko‘rishga jur’at qiladi.

Xulosa qilib aytganda, maktabdagagi ijtimoiy va ruhiy muhit o‘quvchining psixologik yetilishi, hissiy barqarorligi, ichki rag‘bati va bilim saviyasi bilan bevosita bog‘liq. Ta’lim muassasasidagi o‘quvchining holati nafaqat uning o‘quv jarayoniga, balki kelgusidagi shaxsiy shakllanishi va jamiyatdagi faolliliga ham sezilarli ta’sir o‘tkazadi. O‘qituvchilar bilan barpo etilgan ishonchli, iliq munosabatlar, sinfdoshlar orasidagi o‘zaro hurmat va anglashuvga asoslangan muhit, ijtimoiy yordam va e’tibor – o‘quvchida o‘ziga bo‘lgan ishonchni mustahkamlab, sog‘lom psixologik zaminni vujudga keltiradi. Aksincha, noqulay muhit, o‘quvchida stress, yakkalanganlik hissi, hatto maktabga nisbatan begonalashuvni yuzaga keltiradi.

Foydalilanigan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdullayeva R. R. (2020) Ta’lim jarayonida ijtimoiy-psixologik muhitning o‘quvchilarga ta’siri. Toshkent: O‘zbekiston pedagogika nashriyoti. 25-37, 59-64b
2. Karimova Z. A. (2019). Maktab pedagogikasi va tarbiya nazariyasi. Toshkent: Fan va texnologiya. 101-114, 142-150b.
3. Musurmonova O. A., Qurbonova G. (2021). Psixologik muhit va ijtimoiylashuv: ta’limdagi integratsiyalashgan yondashuvlar. Toshkent: TDPU nashriyoti. 33-48b.

4. Qodirov A. S. (2022). Osmirlik davrida psixologik barqarorlikni rivojlantirish omillari. Samarqand: Ilm ziyo. 20-35, 60-68b.
5. Yusupova D. I. (2020). Maktab muhitining oquvchilar ruhiyatiga ta'siri. Toshkent: Ma'rifat. 39-52, 77-84b.
6. Shonazarov O. (2023). Ta'lim tizimida pedagogic muloqot madaniyati. Toshkent: Iste'dod. 18-31, 90-96b.

